

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|  |     |
|--|-----|
| <b>H.M.Abdunazarov, M.H.Umarova</b><br>Surxondaryo viloyati o'simliklar olamining geografik tarqalishi.....  | 272 |
| <b>A.K.Ergashev</b><br>Avstraliya materigi yer usti suvlari tarqalishining hududiy xususiyatlari (daryolar misolida).....  | 277 |
| <b>R.T.Pirnazarov, S.I.Ussonova</b><br>O'zbekiston va unga tutash tog'li hududlardagi to'g'onli ko'llar, ularning tadqiq etilishi va ular bilan bog'liq muammolarning keskinlashuvi..... | 282 |

ILMIY AXBOROT

|  |     |
|--|-----|
| <b>D.I.Ibragimova</b><br>Isajon Sultonning tarixiy hikoyalarida mavzu va g'oya.....  | 290 |
| <b>Sh.A.Yuldashev, S.Muhammadjonova</b><br>Optoelektronikada qo'llash uchun optronlar yaratish .....   | 293 |
| <b>A.A.Ergashev</b><br>Nota muharriri finale-2003 ning amaliyotda qo'llanishi .....  | 298 |
| <b>I.Rustamov</b><br>Yangi O'zbekistonda yaratilayotgan doira darsliklari va ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli .....   | 302 |
| <b>M.Nasritdinova</b><br>Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviy-axloqiy-estetik dunyoqarashini yuksaltirishda musiqa san'atining o'рни.....   | 306 |
| <b>M.V.Nasridinov</b><br>Ingliz va o'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik sathlararo verbalizatorlari struktural-semantik turlari maydoni .....                           | 310 |
| <b>G.O.Shaxbazova</b><br>Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash tizimini modernizatsiyalashning ijtimoiy-pedagogik zarurati .....                                     | 315 |
| <b>N.N.Norxo'jayeva</b><br>Oliy texnik ta'lim muassasalari talabalarining kreativ-grafik kompetentligini rivojlantirish komponentlari va kriteriyalarining pedagogik mazmuni.....    | 318 |
| <b>D.R.Ismoilova</b><br>Ingliz va o'zbek tillaridagi "Jinoyat" semantik maydoni .....  | 322 |
| <b>D.B.Toshpo'latova</b><br>Malakaviy amaliyot vositasida talabalarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlashga innovatsion yondashuv.....                              | 326 |
| <b>М.Ф.Рахмоналиева</b><br>Медиаобразование и медиакомпетентность в современном социокультурном контексте в преподавании английского языка для студентов технического института..... | 332 |
| <b>M.F.Adasheva</b><br>Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida .....                                       | 336 |
| <b>U.Q.Maqsudov, M.O.Yuldasheva</b><br>O'qish savodxonligining asosiy tushunchalari va bolalar rivojlanishidagi roli .....   | 340 |
| <b>M.A.Abdujalilova</b><br>Brief theoretical and historical roots of lingo-culture science. Lingo-cultural brief analysis of household items lexemes .....                           | 348 |
| <b>U.T.Isakov</b><br>O'zbek musiqa madaniyatini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....   | 351 |
| <b>U.U.Xolova</b><br>Abu Ali Ibn Sino va tasavvuf .....  | 356 |
| <b>T.Q.Jabborxonov, F.Sh.G'aprov, A.F.Raxmataliyev, Z.O.Yusupov</b><br>O'rta Osiyoda tarqalgan Inula L. Turkumiga mansub turlarning ekologik mintaqalarda tarqalish tahlillari ..... | 360 |
| <b>Y.Y.Turakulov</b><br>Pedagoglar kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari.....   | 366 |



UO'K: 82-31;82-94

**ISAJON SULTONNING TARIXIY HIKOYALARIDA MAVZU VA G'OYA****ТЕМА И ИДЕЯ В ИСТОРИЧЕСКИХ РАССКАЗАХ ИСАДЖОНА СУЛТАНА****THEME AND IDEA IN THE HISTORICAL STORIES OF ISAJON SULTAN****Ibragimova Dildora Inomjonovna** 

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Maqolada Isajon Sultonning "Yog'och kovush" hikoyasining asosiy va yordamchi mavzulari, asarning bosh g'oyasi ko'rib chiqiladi. Tarixiy metod yordamida hikoya bosh mavzusi ochiladi, qiyosiy chog'ishtirish metodi orqali mavzuning milliy va umumbashariy ahamiyati o'rganiladi. Asarning hozirgi zamon hikoyachiligidagi ahamiyati qayd etiladi. Hikoya uchun o'zga xalq hayoti va turmushi mavzusi asos qilib olingan bo'lsada, asar g'oyasi sharqona iffat, itoatkorlik hamda ota va qizning nafis bir munosabati asosiga qurilgan. Qahramon ota o'z qizining kamoloti uchun uning nafsiga og'ir keluvchi talablarni qo'yganiga qaramay, qizi ustidan bir mas'uliyat, uning taqdiriga javobgarlik hissini tuyadi. Ayni ushbu mas'uliyat otaning hayotini izdan chiqaradi.

**Аннотация**

В статье рассматриваются основные и второстепенные темы повести Исаджона Султана «Ёгоч Ковуш», основная идея произведения. Историческим методом раскрывается основная тема рассказа, а методом сравнительного сравнения исследуется национальное и общечеловеческое значение темы. Отмечается важность произведения в современном повествовании. Хотя в основу повести легла тема жизни и быта иноземного народа, в основу идеи произведения легли восточное целомудрие, послушание и изящные отношения между отцом и дочерью. Несмотря на то, что отец-герой предъявляет тяжёлые для самолюбия дочери требования, он испытывает чувство ответственности за дочь, ответственности за её судьбу. Эта ответственность разрушает жизнь отца.

**Abstract**

The article discusses the main and secondary themes of Isajon Sultan's story "Yogoch Kovush", the main idea of the work. The historical method reveals the main theme of the story, and the comparative method explores the national and universal significance of the topic. The importance of the work in modern storytelling is noted. Although the story was based on the theme of the life and everyday life of foreign people, the idea of the work was based on Eastern chastity, obedience and graceful relationships between father and daughter. Despite the fact that the hero father makes difficult demands on his daughter's pride, he feels a sense of responsibility for his daughter, responsibility for her fate. This responsibility ruins the father's life.

**Kalit so'zlar:** Isajon Sulton, tarixiy hikoya, tabg'ach, yog'och kovush, ota va qiz, mavzu va g'oya, adabiyot tarixi.

**Ключевые слова:** Исаджон Султан, исторический рассказ, табгач, деревянный ковш, отец и дочь, тема и идея, история литературы.

**Key words:** Isajon Sultan, historical story, tabgach, wooden ladle, father and daughter, theme and idea, history of literature.

**KIRISH**

Isajon Sultonning "Yog'och kovush" [1] hikoyasi ilk bor 2016-yilda e'lon qilingan bo'lib, muallifning 2017-yilda nashr etilgan asarlar to'plamiga kiritilgan. Mazkur tarixiy mavzudagi asarda qadimiy Xitoy qishloqlaridan birida yashovchi insonlarning turmush tarzi qalamga olinadi. Asar VII asrda Li Yuan tomonidan asos solingan X asrgacha Xitoyni boshqargan Tang imperiyasi (xitoycha: xāngchao, Tangchao) davri haqida hikoya qiladi. Manbalarda Tan imperatorligining markaziy Osiyo xalqlari boshqaruvini ham ma'lim vaqt o'z qo'liga olganligi aytiladi. Qadim yodgorligimiz Kultegin bitiktoshida Tan imperatori turkiylar uchun bir vaqtning o'zida Tabg'ach xalqining xoqoni vazifasini bajargani, Kultegin o'zini hamda o'z xalqini Tabg'ach xoqon va tabg'ach xalqining "qul"lari deb atagani aytiladi [2, 3]. Isajon Sulton hikoyasi voqealari sulola boshqaruvining oxirlarida sodir bo'ladi.

## ILMIY AXBOROT

Ijodkor tarixiy mavzu fonida o'zbek adabiyoti uchun ham, jahon adabiyoti uchun ham har doim dolzarb bo'lgan otalar va farzandlar muammosini ko'taradi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Qayd etish lozimki, o'zbek adabiyotshunosligida nasriy asarlarda mavzu va g'oya masalasini yirik nasriy asarlar doirasida tadqiq etish urf bo'lgan. Kichik hajmdagi asarlar, xususan, hikoyada mavzu va unda ko'tarilgan fikr va g'oyalarni tadqiq etishga oid tadqiqotlar kam uchraydi. Vaholanki, turkiy adabiyotda mavzu va g'oyaviy jihatdan tahlilga tortish mumkin bo'lgan yuksak fikr va g'oyalar aks etgan hikoyalar bisyor. Olimlarimiz tomonidan folklorida g'oyaviy-badiiy xususiyatlar [4], mumtoz badiiy asarlarda mavzu va g'oya [5], adabiy tanqidida g'oyaviy masalalar [6] va asosan xorij adabiyoti vakillari ijodida mavzu va g'oyaviy jihatlar [7, 8] o'rganilgan.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

So'nggi yillarda nasrda barakali ijod qilayotgan o'zbek ijodkori Isajon Sulton tarixiy mavzudagi asarlari bilan kitobxonlarning alohida e'tiboriga sazovor bo'lmoqda. Uning tarixiy nasrdagi dastlabki asarlaridan biri "Yog'och kovush" – mo'jazgina hikoya bo'lishiga qaramay, g'oyaviy-tematik jihatdan muhim ma'naviy masalalarni o'rta chiqaradi.

Ma'lumki, mavzu va u orqali ijodkor ifodalamoqchi bo'lgan g'oya yaxlit bir tizim hisoblanmish badiiy asarning tarkibiy qismlarini birlashtirib turuvchi asosiy unsur hisoblanadi. Mavzu – muallifning tajribasidan kelib chiqqan, unga hayot tomonidan taklif qilingan, lekin hali ham shakllanmagan taassurotlar bag'rida to'planib, obrazlarda gavdalanishni talab qilib, unda o'zining dizayni bo'yicha ishlashga ishtiyosini uyg'otadigan g'oyadir [M.Gorkiy]. Ma'lumki, badiiy asar mavzusi ko'p qatlamli bo'lib, asosan bosh mavzu va ikkinchi darajali, yordamchi mavzular sifatida tahlil qilinadi. Ammo badiiy asar tarkibida yana bir mavzu turi bo'lib, u barcha davrlar va barcha kishilik jamiyatlari uchun dolzarb hisoblanadi va doimiy mavzular deb yuritiladi. Tahlilga tortilgan hikoya mavzusini nazariy tushunchalar asosida quyidagi jadval orqali ifodalashga harakat qilamiz.

| Mavzu   |                         |                          |
|---|-------------------------|--------------------------|
| Asosiy mavzu  | Ikkinchi darajali mavzu | Abadiy mavzu             |
| Tarixiylik  | Qishloq hayoti          | Ota va qiz munosabatlari |
| Asar tarixiy mavzuda bo'lib, qishloq hayoti haqida hikoya qiladi. Unda ota va qiz munosabatlari muammo sifatida taqdim etiladi. |                         |                          |

Demak, "Yog'och kovush" hikoyasining asosiy mavzusi – tarixiylik bo'lib, Tan sulolasining oxirgi davrlarida xitoyning kichik bir qishlog'ida yashovchi kishilarning hayoti, turmush tarzini o'zida ifoda etadi. Chin o'lkasining Ronzyan nomli qishlog'ida yashagan Xuan-Shi ismli chorikorning sholi yetishtirishi va o'z qizi haqida orzularga berilishi tabiiy bo'yoqlarda chiziladi. Ota qizini juda yaxshi ko'radi va o'zidan yaxshiroq hayotda yashashini istaydi. Bunda u farzandini sholichi boyga turmushga berishni yagona yo'l deb biladi. Maqsadga yetishning asosiy sharti qilib nozik oyoqchalar qo'yiladi. Ota tasavvurida mitti yoqchalar qizining baxtini belgilab beradi.

*"Xuan-Shi undan-bundan yuqori tabaqa kishilariga qanaqa qizlar yoqishini surishtirdi.*

*Aytishlariga qaraganda, ingichka gavdali, oyoqlari juda kichkina qizlar ma'qul emish. Qizi esa onasiga tortdi, ya'ni suyagi yirik bo'lib o'smoqda. Xuan-Shi o'ylay-o'ylay, o'sha mahallar urf bo'lgan deb eshitganini qilishga ahd qildi, ya'ni yog'ochdan kichkina kavush yasadi-da, qizchasining oyog'iga kiydirib qo'ydi"*

Asarning abadiy mavzusi – ota va qiz munosabatlari badiiy adabiyotda qadim mavzulardan biri hisoblanadi. Tabiiyki, sharqona madaniyat badiiy adabiyotida mazkur mavzuning yoritilishiga izn bermaydi. Shu sababdan ota va qiz munosabatlari milliy adabiyotimizda eng kam qalamga olingan mavzulardan biridir. An'anaga ko'ra, sharq mamlakatlari adabiyotida otalar qizlari uchun hukm chiqarish huquqiga ega shaxs hisoblanadi. Shu sabab ular o'rtasida faqat biryozlama munosabat yuzaga keladi – ota hukm chiqaradi, qizdan esa so'zsiz itoat. O'zbek adabiyotida XX asr oxiriga kelibgina ota va qiz munosabatlari badiiy asarlarda aks eta boshladi. Abdulla Qodiriy Kumushini ikkinchi bor turmushga berishda otaning qizdan rozilik olishi mazkur mavzuning ilk namunalaridan biri sifatida ko'riladi.

G'arb adabiyotida otalar va qizlar o'rtasidagi munosabat ancha bahsli. Qirol Lirning qizlari uning boyliklari uchun kurashgan voqeadan tortib, Jorj Eliotning Silas Marnerdagi qarovsiz qizning hayotini o'zgartirib, asrab olishigacha - ota-qiz munosabatlari har doim yozuvchilar uchun chuqur ilhom manbai bo'lib kelgan. Shekspir ijodida hech kimga o'xshamagan yomon otalarni ko'ramiz: Julietaning otasi uni o'zi istamagan erkak bilan turmush qurishga majburlaydi, Prospero - mega-manipulyator, qirol Lir esa,

ehtimol, ota qizlarini aldashinging eng yaxshi namunasidir. Qirolning birinchi xatosi o'z farzandlaridan biri Kordeliyani boshqalaridan afzalroq ko'rgani bo'lsa, ikkinchi xatosi qizlaridan sevgini talab qilgani bo'ldi.

Isajon Sultonning "otasi" qizidan birgina narsani talab qiladi – o'zidan ko'ra yaxshiroq yashash va bu yo'lda qiyinchilikka sabr qilish. Ijodkorning otasi sharq otalari kabi qizining ustidan hukm yuritadi va uning baxti uchun ko'p narsalarni qurbon qilishga tayyor. Qizi rad etilgan otaning bor-budini tashlab nomalum taqdir sari yo'l olishiga sabab – otaning qizi ko'ziga qaray olmasligi, u haqdagi orzularining sarobga aylanganligini unga ayta olmasligidir. Bu g'amgin hikoyaning bebaxt otasi taqdiriga yozilgan yagona baxt – qizining u haqdagi muhabbatga to'la hikoyalari bo'lib qoldi. Otalarning, sevgan va sevimli bo'la olgan otalarning farzandlari ustida qilgan xatolari kechiriladi.

Asar mavzusi orqali ijodkor aytmoqchi bo'lgan fikr badiiy asar g'oyasi hisoblanadi. Isajon Sulton "Yog'och kovush" orqali badiiy adabiyot vositasida otalar qizlarini naqadar yaxshi ko'rishlarini aytib hayqirayotganday. Otalar qizlarini juda yaxshi ko'radilar. Buning uchun ba'zida ularning jonlari va qalblarini og'ritishga to'g'ri kelsa ham, aslida ular qizlarini juda-juda yaxshi ko'radilar.

– *Otajon, bu narsa oyog'imni qisypapti, og'riypapti, – deb zorlandi qizcha. So'ng yerga o'tirib, mitti barmoqchalari ila kavushni chiqarishga urina boshladi.*

– *Hoy qizcha, – dedi Xuan-shi, boltani ko'rsatib. – Agar yechadigan bo'lsang, oyog'ingni mana shu bolta bilan chopib tashlayman!*

Qizaloq bu do'qdan qo'rqdi. Og'riq sezilib turgan qop-qora ko'zchalarida hurkish ifodasi paydo bo'ldi.

– *Xo'p-xo'p, ota, yechmayman, – dedi shosha-pisha, itoat bilan.*

Qizginaning oyog'idagi og'riq otasining g'azabidan yengil edi go'yo. Ijodkor bu o'rinda otaning kechinmalarini berar ekan, zo'r berib uni oqlashga kirishadi:

– *"Xuan-Shining yuragi achishsa-da, bolamni kelajagini o'ylab shunday qilyapman-ku, degan o'y taskin berar edi. Bugun u juda charchadi. Oyoqlarini sholipoya suvchayonlari, zuluklari chaqib tashlagan, bilaklari achishar, tani orom istar edi. Bola hayot nimaligini qaydan bilsin? Hali vaqti kelganida, shu qashshoqlik girdobidan chiqargani uchun otasidan minnatdor bo'ladi, albatta".*

#### XULOSA

Isajon Sultonning tarixiy mavzudagi asarlar alohida xususiyatga ega bo'lib, muallif nafaqat xalqimiz tarixidan bahs etadi, o'tmishda taqdiralarimiz kesishgan xalqlar tarixini ham qalamga oladi. Xitoy qabilalari, arab xalqlari hayoti mavzu qilib olingan tarixiy hikoyalar ijodkorning tarix sohasidagi izlanishlari natijasi o'laroq dunyoga kelganini qayd etish lozim.

"Yog'och kovush" hikoyasi uchun o'zga xalq hayoti va turmushi mavzusi qilib olingan bo'lsada, asar g'oyasi sharqona iffat, itoatkorlik hamda ota va qizning nafis bir munosabati asosiga qurilgan. Qahramon ota o'z qizining kamoloti uchun uning nafsiga og'ir keluvchi talablarni qo'yganiga qaramay, qizi ustidan bir mas'uliyat, uning taqdiriga javobgarlik hissini tuyadi. Ayni ushbu mas'uliyat otaning hayotini izdan chiqaradi.

Otaga ehtiromning sharqona namunasi – otaning qizga qo'ygan cheklovi – yog'och kovush hikoya so'ngida qizning eng qimmatli qadriyatiga aylanadi. Bunday yechim farzandi uchun ko'p zahmat chekkan otaning qiymati, uning fidokorligi bahosini yanada orttirib ko'rsatadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Исажон Султон. Ёғоч ковуш /Асарлар. Ҳикоялар. I Жилд. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. –Б. 367.

2. Л. Н. Гумилёв: Древние тюрки.// М.: 1967. 504 с.

3. Малов С. Е. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. // М.-Л.: 1951. 451 с. Николаев А. И. Основы литературоведения: учебное пособие для студентов филологических специальностей. – Иваново: ЛИСТОС, 2011. – 48-49 с.

4. U.Jumanazarov. O'zbek tarixiy folklorining janriy xilma-xilligi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Doktorlik dissertatsiyasi. – T., 1991.

5. Fayzullayev Zavqiyjon Qobiljon o'g'li. "Sab'ayi Sayyor" Va "Haft Paykar": Dostonlarda Mavzu Va G'oya". Miasto Przyszłości, vol. 28, Oct. 2022, pp. 146-50, <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/590>.

6. Aminbayevich, Q. I. ., & o'g'li, B. O. Y. . (2022). Adabiy Talqinda So'z, Obraz Va G'oya Nisbati. Miasto Przyszłości, 30, 389–391. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/955>

7. Shamsiqamar, T. . (2022). NIRMAL VARMANING BIR KUNLIK MEHMON, QUSHLAR VA TAFOVUT HIKOYALARIDA MAVZU VA GOYALARINING BADIY XUSUSIYATI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(3), 344–348. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/588>

8. Olimova, G. S. (2022). ARTUR KONAN DOYLNING "YO'QOLGAN DUNYO" ASARIDA MAVZU VA G'OYA. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(19), 40–45. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/cf/article/view/696>